



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 12 (14)  
2025**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**12**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2025**

**MUNDARIJA**

<b>Юлдашев Ш.Г.</b> Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....	<b>7</b>
<b>Tursunov A.M.</b> Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.	<b>18</b>
<b>Umurzakova Z.S.</b> Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	<b>21</b>
<b>Axunov M.A.</b> Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....	<b>24</b>
<b>Исраилова Д.К.</b> “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....	<b>28</b>
<b>Шокирова Г.М.</b> Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....	<b>33</b>
<b>Vaxtohonova D.N.</b> Bank omonatlari bo‘yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta’siri.....	<b>36</b>
<b>Xasanova X.F.</b> Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....	<b>41</b>
<b>Бегимова Д.К.</b> Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....	<b>45</b>
<b>Mirzayev B.S.</b> CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta’siri: imkoniyatlar va xatarlar....	<b>50</b>
<b>Mirzarahimova A.A.</b> Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari.....	<b>53</b>
<b>Азимов О.Т.</b> Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....	<b>56</b>
<b>Халмирзаев А.А.</b> Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....	<b>62</b>
<b>Шоабдурахимова М.М.</b> Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан).....	<b>68</b>
<b>Xolmuratov O.T.</b> Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....	<b>72</b>
<b>Yarashev M.O., Nabieva S.A.</b> Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari.....	<b>76</b>
<b>Кабилова К.</b> Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....	<b>80</b>
<b>Махмудова С.</b> Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....	<b>85</b>
<b>Захидова Ш.Ш.</b> Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....	<b>89</b>
<b>Saidaxmedov N.X.</b> Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....	<b>97</b>
<b>Усманова С.С.</b> Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....	<b>100</b>
<b>Madrahimov U.A.</b> Iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari.....	<b>104</b>
<b>Джалилов Д.А.</b> Капиталнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....	<b>108</b>
<b>Султанова Л.Ш.</b> Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....	<b>111</b>
<b>Mahmudov Sh.N.</b> Location and development of industrial sectors in the regions.....	<b>115</b>
<b>Ustadjalilov D.R.</b> O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....	<b>119</b>
<b>Гайбуллаев Ф.</b> Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....	<b>125</b>
<b>Abdurazakova F.D., Normurodov X.E.</b> Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o‘rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....	<b>129</b>
<b>Muxtarov M.M.</b> Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O‘zbekiston uchun istiqbollar.....	<b>136</b>
<b>Ro‘zmatov B.Z., Shodiyeva N.H.</b> Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....	<b>140</b>

<b>Rahmatova N.A., Mustafayeva H.</b> O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....	<b>147</b>
<b>Ахмедов Х.</b> Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.	<b>154</b>
<b>Boboyev A.Ch.</b> Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....	<b>159</b>
<b>Исраилов З.А.</b> Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....	<b>165</b>
<b>Ikromov A.Sh.</b> Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	<b>169</b>
<b>Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш.</b> Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....	<b>175</b>
<b>Elmurodov Sh.Sh.</b> A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....	<b>183</b>
<b>Axmadjonov S.S.</b> Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....	<b>188</b>
<b>Sabirova Z.U.</b> Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....	<b>192</b>
<b>Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R.</b> Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	<b>197</b>
<b>Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х.</b> Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....	<b>203</b>
<b>Zoxidov T.M.</b> Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....	<b>211</b>
<b>Nabiyeva N.M.</b> Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....	<b>216</b>
<b>Sharofiddinov Sh.U.</b> Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....	<b>221</b>
<b>Nurmatov Z.Sh.</b> O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....	<b>225</b>
<b>Содиқов А.М., Зокиров С.С.</b> Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....	<b>230</b>
<b>Narmanov U., Ikromova S.</b> Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....	<b>238</b>
<b>Qutbiddinov A.B.</b> Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....	<b>241</b>
<b>Qayumova Sh.S.</b> Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli.....	<b>246</b>
<b>Turebekov A.A.</b> Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....	<b>252</b>
<b>Kurbanova M.N., Azizov A.A.</b> Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta‘siri.....	<b>255</b>
<b>Samadova G.S.</b> O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri.....	<b>259</b>
<b>Абдуллаева Р.</b> Инклюзив тадбиркорликнинг моҳияти ва хориж тажрибаси.....	<b>264</b>
<b>To‘uchiyeva B.V.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....	<b>268</b>
<b>Amnah Saeed J Alhindi</b> The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....	<b>272</b>
<b>Fayziyev O.R.</b> O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....	<b>276</b>
<b>Алимов Р.А., Султанова Л.Ш.</b> Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....	<b>280</b>
<b>Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X.</b> Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri.....	<b>284</b>
<b>Xaydarov X.U., Raxmonov D.R.</b> 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta‘siri.....	<b>288</b>
<b>Солижонов М.А.</b> Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....	<b>292</b>
<b>Rejapov X.X.</b> Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....	<b>297</b>

**O‘ZBEKISTONDA BALIQCHILIK KLASTERLARINI MOLİYALASHTIRISHNING  
HUDUDIIY VA TARMOQ XUSUSIYATLARI**

**РЕГИОНАЛЬНЫЕ И ОТРАСЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ФИНАНСИРОВАНИЯ  
РЫБОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КЛАСТЕРОВ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**REGIONAL AND SECTORAL FEATURES OF FINANCING FISHERY CLUSTERS IN  
UZBEKISTAN**

**Fayziyev Oybek Raximovich**

Alfraganus University, Iqtisodiyot fakulteti, “Moliya” kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD),  
Toshkent kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi  
ORCID: 0000-0002-4001-1885  
e-mail: fayziev.oybek@mail.ru

**Annotatsiya**

Maqolada O‘zbekistonda agrosanoat klasterlari tizimida baliqchilik yo‘nalishining shakllanishi va uni moliyalashtirishning hududiy hamda tarmoq xususiyatlari tahlil qilingan. Tahlil 2017–2024-yillarda agrosanoat klasterlarining yo‘nalishlar va hududlar bo‘yicha soni hamda 2024-yilda baliqchilik klasterlarining hududiy taqsimotiga oid ma’lumotlar asosida amalga oshirildi. Natijalar baliqchilik klasterlari 2021-yildan shakllangani va keyingi yillarda barqaror saqlanib qolganini, shuningdek, ularning hududlar bo‘yicha notekis joylashganini ko‘rsatdi. Moliyalashtirishni takomillashtirishda hududiy ixtisoslashuv va resurslar mavjudligini hisobga olish zarurligi asoslandi.

**Kalit so‘zlar:** agrosanoat klasterlari, baliqchilik klasteri, moliyalashtirish, hududiy ixtisoslashuv, oziq-ovqat xavfsizligi.

В статье анализируются формирование рыбохозяйственных кластеров в системе агропромышленных кластеров Узбекистана, а также региональные и отраслевые особенности их финансирования. Анализ основан на данных о количестве агропромышленных кластеров по направлениям и регионам за 2017–2024 годы, а также о территориальном распределении рыбохозяйственных кластеров в 2024 году. Результаты исследования показывают, что рыбохозяйственные кластеры начали формироваться с 2021 года и в последующие годы сохраняли стабильное количество, при этом их размещение по регионам носит неравномерный характер. Обоснована необходимость учета региональной специализации и ресурсного потенциала при совершенствовании механизмов финансирования рыбохозяйственных кластеров.

**Ключевые слова:** агропромышленные кластеры, рыбохозяйственные кластеры, финансирование, региональная специализация, продовольственная безопасность.

The article analyzes the formation of fishery clusters within the system of agro-industrial clusters in Uzbekistan, as well as the regional and sectoral features of their financing. The analysis is based on data on the number of agro-industrial clusters by sector and region for 2017–2024, along with the territorial distribution of fishery clusters in 2024. The results indicate that fishery clusters began to emerge in 2021 and maintained a stable number in subsequent years, while their regional distribution remains uneven. The study substantiates the need to consider regional specialization and resource potential when improving financing mechanisms for fishery clusters.

**Keywords:** agro-industrial clusters, fishery clusters, financing, regional specialization, food security.

Agrosanoat klasterlari modeli qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish, qayta ishlash va bozor

## **“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil**

infratuzilmasini yagona zanjirda birlashtirish orqali resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Bunday yondashuv moliyaviy resurslarni maqsadli yo'naltirish, aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish va tarmoqlar o'rtasida kooperatsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, aylanma mablag'lar harakati va ularning aylanuvchanligi korxonalarining moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, bu esa klasterlar doirasida yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda klasterlashuv siyosati izchil amalga oshirilib, an'anaviy tarmoqlar bilan bir qatorda baliqchilik yo'nalishi ham agrosanoat klasterlari tizimiga kiritildi. Baliqchilik oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholi bandligini oshirish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish nuqtayi nazaridan strategik ahamiyatga ega. Biroq mazkur tarmoqning moliyalashtirilishi boshqa yo'nalishlarga nisbatan o'ziga xos bo'lib, hududiy sharoitlar, resurs bazasi va institutsional yondashuvlar bilan belgilanadi. Shu sababli baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlarini chuqur tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

Agrosanoat klasterlari tizimida yo'nalishlar o'rtasidagi nisbat moliyalashtirish ustuvorliklarini belgilaydi. Ushbu nisbatni baholash maqsadida agrosanoat klasterlarining yo'nalishlar bo'yicha dinamikasi tahlil qilindi (1-jadval).

**1-jadval**

### **O‘zbekiston Respublikasidagi mavjud agrosanoat klasterlarining yo‘nalishlar bo‘yicha 2017-2024-yillardagi soni [1], *dona***

№	Agroklaster yo'nalishi	Yillar davomidagi soni								2024-yilda 2017-yilga nisbatan o'zgarishi, +;-
		2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	
1	Paxta-to'qimachilik	3	12	94	96	122	134	142	144	<b>141</b>
2	G'allachilik	0	0	0	124	198	195	161	126	<b>126</b>
3	Meva-sabzavotchilik	0	0	0	86	146	261	244	136	<b>136</b>
4	Sholichilik	0	0	0	33	40	41	41	41	<b>41</b>
5	Dorivorchilik	0	0	0	0	8	8	8	8	<b>8</b>
6	Chorvachilik	0	0	0	0	34	34	34	34	<b>34</b>
7	Qorako'lichilik	0	0	0	0	46	46	46	46	<b>46</b>
8	Parrandachilik	0	0	0	0	11	11	11	11	<b>11</b>
9	Baliqchilik	0	0	0	0	38	38	38	38	<b>38</b>
10	Pillachilik	0	0	0	0	76	76	76	76	<b>76</b>
	<b>JAMI:</b>	<b>3</b>	<b>12</b>	<b>94</b>	<b>339</b>	<b>719</b>	<b>844</b>	<b>801</b>	<b>660</b>	<b>657</b>

Mazkur 1-jadval ma'lumotlaridan ham ko'rinib turibdiki, baliqchilik klasterlari 2021 yildan boshlab shakllanganini va 2021–2024 yillarda ularning soni 38 ta darajasida barqaror saqlanib qolganini ko'rsatadi. Bu holat baliqchilik sohasida moliyalashtirish siyosati keng miqyosli kengayishga emas, balki mavjud klasterlarning samaradorligini oshirish va aylanma kapitaldan foydalanishni optimallashtirishga qaratilganini anglatadi.

Shu bilan birga, paxta-to'qimachilik, meva-sabzavotchilik va g'allachilik yo'nalishlarida klasterlar sonining yuqoriligi mazkur tarmoqlarda moliyaviy resurslar konsentratsiyasi katta ekanini ko'rsatadi. Bu tarmoqlar uzoq yillik infratuzilma va bozor talabiga ega bo'lgani sababli investitsiyalarni jalb etishda ustuvor hisoblanadi. Baliqchilik esa nisbatan yangi yo'nalish sifatida barqaror, ammo cheklangan moliyalashtirish modeliga ega bo'lib, bu resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan ehtiyotkor yondashuvni aks ettiradi.


Klasterlarning hududlar bo'yicha joylashuvi moliyalashtirish imkoniyatlari va resurslar taqsimotining real holatini ko'rsatadi. Shu maqsadda agrosanoat klasterlarining hududiy dinamikasi tahlil qilindi (2-jadval).

O‘zbekiston Respublikasidagi mavjud agrosanoat klasterlarining xududlar bo‘yicha 2017-2024 yillardagi soni [2], *dona*

№	Hududlar	Yillar davomidagi soni				2024-yilda 2017-yilga nisbatan o‘zgarishi, +,-
		2017	2020	2022	2024	
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	0	29	99	60	<b>60</b>
2	Andijon	0	33	71	57	<b>57</b>
3	Buxoro	1	19	63	63	<b>62</b>
4	Jizzax	0	16	42	34	<b>34</b>
5	Qashqadaryo	0	37	92	67	<b>67</b>
6	Navoiy	1	9	43	42	<b>41</b>
7	Namangan	0	21	50	44	<b>44</b>
8	Samarqand	0	41	68	56	<b>56</b>
9	Surxondaryo	0	19	57	40	<b>40</b>
10	Sirdaryo	1	21	41	40	<b>39</b>
11	Toshkent	0	21	73	55	<b>55</b>
12	Farg‘ona	0	44	104	61	<b>61</b>
13	Xorazm	0	29	41	41	<b>41</b>
	<b>Respublika bo‘yicha jami:</b>	<b>3</b>	<b>339</b>	<b>844</b>	<b>660</b>	<b>657</b>

Tahlil 2020–2022 yillarda deyarli barcha hududlarda klasterlar sonining keskin oshganini ko‘rsatadi. Bu davrda moliyalashtirish jarayonlari faollashib, yangi klasterlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi oshgan. 2023–2024-yillarga kelib esa klasterlar sonining qisqarishi kuzatilib, bu holat tizimni optimallashtirish, samarasiz klasterlarni qisqartirish va moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash jarayonlari bilan izohlanadi.

Hududiy farqlar moliyalashtirishda ixtisoslashuv muhim ekanini ko‘rsatadi. Ayrim hududlarda klasterlar sonining yuqoriligi infratuzilma va resurs bazasining nisbatan rivojlangani bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa hududlarda cheklanganlik moliyaviy imkoniyatlar bilan belgilanadi.



1-rasm. Baliqchilik klasterlarining hududiy taqsimoti (2024-yil) [3]

Yuqoridagi 1-rasmda 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha baliqchilik klasterlarining taqsimoti aks ettirilgan bo‘lib, bu ma’lumotlar baliqchilik klasterlarining hududlar kesimida notekis joylashganini yaqqol ko‘rsatadi. Bu esa, sohani moliyalashtirish va rivojlantirishda hududiy yondashuvning muhimligini anglatadi. 1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, Toshkent viloyati baliqchilik klasterlari soni bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallab, mazkur hududda 6 ta klaster faoliyat yuritmoqda. Bu holat viloyatda moliyaviy infratuzilmaning rivojlanganligi, investitsiya resurslariga yaqinlik hamda bozor talabining yuqoriligi bilan izohlanishi mumkin. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 5 ta baliqchilik klasteri mavjudligi ushbu hududda tabiiy suv resurslari va baliqchilikni rivojlantirish uchun muayyan tashkiliy asos shakllanganini ko‘rsatadi.

Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida baliqchilik klasterlari soni 4 tadan bo‘lib, bu hududlarda sohaning o‘rta darajada institutsionallashganini anglatadi. Boshqa bir qator hududlarda (Samarqand, Navoiy, Farg‘ona va Jizzax) klasterlar soni 2–3 tadan oshmasligi baliqchilik tarmog‘ining hali to‘liq ochilmagan iqtisodiy salohiyati mavjudligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, Surxondaryo viloyatida baliqchilik klasteri mavjud emasligi mazkur hududda resurs bazasi, moliyalashtirish ustuvorliklari yoki tarmoq ixtisoslashuvi nuqtayi nazaridan baliqchilik sohasiga yetarli e‘tibor qaratilmayotganini anglatadi. Bu holat kelgusida hududiy moliyalashtirish siyosatini qayta ko‘rib chiqish va baliqchilikni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, ushbu 1-rasmda keltirilgan ma’lumotlar baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishda hududiy differentsiatsiya, resurslar mavjudligi va infratuzilma darajasini hisobga olgan holda maqsadli yondashuvni shakllantirish zarurligini asoslaydi. Bu esa baliqchilik tarmog‘ining barqaror rivojlanishi va uning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashdagi rolini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlillar O‘zbekistonda baliqchilik klasterlari agrosanoat klasterlari tizimida barqaror, ammo cheklangan o‘ringa ega ekanini ko‘rsatdi. Moliyalashtirish siyosati hududiy ixtisoslashuv va resurslar mavjudligi bilan belgilanib, aylanma kapitaldan samarali foydalanishga qaratilgan.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishda hududiy resurs bazasini hisobga olgan maqsadli mexanizmlarni joriy etish;
- barqaror faoliyat yuritayotgan klasterlarda aylanma mablag‘lar samaradorligini oshirish choralari kuchaytirish;
- hududlar kesimida baliqchilik klasterlarini rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Fayziyev O.R. “Aylanma aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari” // «Muhandislik va iqtisodiyot». – Toshkent, 2024. - № 4. – B. 43-47
2. Fayziyev O.R. “Aylanma mablag‘lar aylanuvchanligini tezlashtirishning asosiy yo‘llari” // “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”. – Toshkent, 2024. - № 11. – B. 179-184.
3. Fayziyev O.R. “Aylanma mablag‘lar samaradorligini oshirishning muhim omili” // “Jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va yechimlar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 2-qism / Ma‘mun universiteti. – Toshkent: Bookmany print, 2024. 41–46 b.
4. Fayziyev O.R. “Baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirishning oziq-ovqat xavfsizligiga ta‘siri”. “Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirishning muammo va yechimlari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2024. 509-514 betlar.
5. Fayziyev O.R. “Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda baliqchilik tarmog‘ining ahamiyati va o‘rni” // “AGROIQTISODIYOT”. – Toshkent, 2024. №4. B. 46-50. (08.00.00., № 25).
6. Fayziyev O.R. “Aylanma mablag‘lar aylanuvchanligini tezlashtirishga omillar ta‘sirini baholash” // “Marketing”. – Toshkent, 2025. №1. B. 314-318. (08.00.00., №).
7. Fayziyev O.R. “Aylanma kapital rentabelligini baholashga kompleks yondashuv” // “Yashil

iqtisodiyot va taraqqiyot”. – Toshkent, 2025. - № 2. – B. 559-566.

8. Fayziyev O.R. “Qishloq xo‘jaligi korxonalarida aylanma mablag‘lar harakati va rentabelligining kompleks tahlili” // “AGROIQTISODIYOT”. – Toshkent, 2025. №1. B. 151-153. (08.00.00., № 25).
9. Fayziyev O.R. Aylanma mablag‘lar aylanuvchanligini tezlashtirishga ta‘sir qiluvchi omillar tahlili. / “Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari [Matn] / “Ma‘mun universiteti” NTM.- Xorazm: Khwarezm publication, 2025. - 608 b. 596-599.
10. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2017-2024 yilgi statistik ma‘lumotlari.

**УДК: 330.342:004.8**

**АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ:  
МНОГОУРОВНЕВАЯ МОДЕЛЬ И ФИГУРА НОВОГО ИНТЕЛЛЕКТУАЛА**

**ABSORPTION QOBILIYAT VA SUN‘IY INTELLEKT: KO‘P DARAJALI MODEL VA  
YANGI INTELLEKTUAL QIYOFASI**

**ABSORPTIVE CAPACITY AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A MULTILEVEL  
MODEL AND THE FIGURE OF THE NEW INTELLECTUAL**

**Алимов Равшан Арифович** д.э.н., профессор  
**Султанова Лола Шарафовна** к.э.н., доцент  
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

**Аннотация**

В статье предлагается новая концептуализация абсорбционной способности экономики (АС) в условиях распространения технологий искусственного интеллекта (ИИ). Показано, что многоуровневая модель АС и фигура «ИИ-элит» позволяют превращать диалог с ИИ в источник инноваций и стратегий для стран с переходной экономикой.

**Ключевые слова:** абсорбционная способность; искусственный интеллект; когнитивные навыки; институты; цифровая инфраструктура; новый интеллект

Maqolada sun‘iy intellekt (SI) sharoitida iqtisodiyotning absorpsion qobiliyati (AQ) yangi konseptualizatsiyasi taklif etiladi. Ko‘p darajali AQ modeli va “SI elitalari” tushunchasi SI bilan dialogni innovatsiyalar hamda o‘tish iqtisodiyotlari uchun strategiyalar manbaiga aylantirishi ko‘rsatiladi.

**Kalit so‘zlar:** absorpsion qobiliyat; sun‘iy intellekt; kognitiv ko‘nikmalar; institutlar; raqamli infratuzilma; yangi intellektual

This article introduces a new conceptualization of absorptive capacity (AC) in the context of artificial intelligence (AI). It shows that a multilevel AC model and the concept of “AI elites” transform dialogue with AI into a source of innovation and strategies for transition economies.

**Keywords:** absorptive capacity; artificial intelligence; cognitive skills; institutions; digital infrastructure; new intellectual

Абсорбционная способность экономики — это умение системы превращать внешние знания в собственные результаты. В классических работах она описывалась как способность фирм распознавать ценность информации, усваивать её и использовать для инноваций. Но сегодня мы живём в другой реальности: знания приходят не только от людей и институтов, но